

**JINOYATLARNI BARVAQT OLDINI OLISHDA ILG'OR XORIJY TAJRIBALARNI
AMALIYOTGA JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14892642>

Adizov Vohidjon Valiyevich

Buxoro viloyati IIB xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jinoyatlarni barvaqt oldini olish hamda ushbu jarayonda ilg'or xorijy tajribalardan foydalanish chora tadbirlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Jinoyatchilik, qonunbuzarlik, jamiyat, xavfsizlik, huquqbuzarlik xorijy tajriba, ijtimoiy tizim.*

Bugungi kundagi rivojlanayotgan zamonda davlatimizning farovon hayoti uchun fuqarolarimizning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini ta'minlash oldimizdan turgan dolzarb masalardan biridir. Chunki biz jamiyatning bir qismi bo'lgan holda, unga ta'sir qilishimiz, rivojlanishida ishtirok etishimiz va farovonligiga hissa qo'shishimiz mumkin. Shuning uchun fuqarolik amaliyoti - jamiyatimizda faol rol o'ynash amaliyoti sifatida ham tushuniladi. Bunday ishtirok etish bizning mahallamizda, rasmiy yoki norasmiy ijtimoiy guruhda, mamlakatimizda yoki butun dunyoda bo'lishi mumkin. Ming afsuslar bo'lsinki, qonun hammaga barobar bo'lishi kerak deymizu, lekin ko'pincha bunga o'z hissamizni qo'shgimiz kelmaydi. O'zimiz guvoh bo'lib qolgan jinoyatchilik haqida tegishli organlarga xabar berishga, xatto u jinoyat bo'lsa ham, o'zimizcha "or" qilamiz. Buni "sotqinlik" va yana bir balo so'zlar bilan nomlab olgan huquqbuzarlar, jinoyatchilarga fikran ergashayotganimizni o'zimiz ham sezmaymiz. Aslida, har qanday mamlakatda huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf qilishda nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Zero tariximizning buyuk olimlaridan biri bo'lmish Aristotel aytganidek "Yaxshi inson va yaxshi fuqaro bo'lish har doim ham bir xil emas".

Mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda ichki ishlar organlari va ularning samarali faoliyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Ayni paytda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr talablari barcha sohalar singari, ichki ishlar organlari xodimlaridan ham tinimsiz o'qib-o'rganishni, o'z ustida ishlashni, bilim va saviyasini, malakalarini doimo oshirib borishni taqozo qiladi.

Xalqimizda "Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olish muhim" degan naql mavjud. Bu naql jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va xavfsizlikni saqlash nuqtai nazaridan ham to'g'ri qo'llanilishi kerak. Ya'ni, jinoyat sodir etilishida ham ayan shu yondashuvni tatbiq etish zarur. Agar jinoyatning oldini olishga erishilsa, bu nafaqat davlatning huquqni muhofaza qilish tizimi uchun, balki butun jamiyat uchun ham katta foya keltiradi. O'z vaqtida jinoyatning oldini olish jamiyatdaadolatni, xavfsizlikni va

ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Jinoyatchilik, jamiyatlar uchun eng katta tahdidlardan biri bo'lib, uning salbiy oqibatlari iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan sezilarli. Dunyo bo'yab davlatlar jinoyatchilikni kamaytirish va unga qarshi kurashish maqsadida turli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Biroq, ko'plab olimlar, mutaxassislar va siyosatshunoslar ta'kidlashicha, jinoyatchilikka qarshi kurashgandan ko'ra uni oldini olish yanada samaraliroq va uzoq muddatli yechim hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining har bir chiqishlarida sohaga mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergen holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishslashga alohida urg'u qaratishni ko'p bora ta'kidlab kelmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, respublikamizda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadblar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda sezilarli darajada ijobji natijalami yaxshilashga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyev Oliy Majlis Senatida so'zlagan ma'rurasida "Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish haqida to'xtalib, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida bir qator ishlarni amalga oshirilganligini ammo sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek murojaatda, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha jinoyat sodir etgan 47 mingdan ortiq shaxsning 12 ming nafari yoki 25 foizini yoshlar tashkil etganligi va bu ko'rsatkich Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida 39 foizni, Andijon va Namangan viloyatlarida 38 foizdan oshganligi va ushbu tashvishli ahvol bo'yicha yuqorida nomi qayd etilgan hududlarda Senatning sayyor majlislari o'tkazilib, bu masala jiddiy muhokama qilinmaganligi qo'shimcha qilib o'tilgan. Darhaqiqat, sodir etilayotgan jinoyatlarning aksariyat qismi tayin bir ish joyiga ega bo'limgan, oilasida yetishmovchilik bor bo'lgan, muntazam ichkilikka, giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga berilgan yoki muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday shaxslar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishini oldini olishda ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish ya'ni g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdag'i yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rgan holda ularning bandligini ta'minlash, qolaversa tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qonunchiligidan bir qator normativ huquqiy hujjalarda jinoyat to'g'risida xabar bergenlik uchun fuqarolarni rag'batlantirish masalasi ko'zda tutilgan. Xorijiy mamlakatlarda davlat va xususiy sektorlarida turli xil jinoyatchilik, huquqbazarliklarning oldini olish, ularni fosh qilish maqsadida fuqarolarni rag'batlantirish uslubidan ham keng foydalaniladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada va boshqa davlatlar qonunchiligidagi ham korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmi sifatida korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqida xabar bergen shaxslarni rag'batlantirish tartibi

belgilangan bo'lib, bundan tashqari, bunday mamlakatlar qonunchilik tizimida fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki huquqiy tartibga solingan.

Jinoyatchilikni oldini olishning bir nechta asosiy afzalliklari mavjud, ularning barchasi jamiyatning xavfsizligini oshirishga qaratilgan. Birinchi navbatda, jinoyatni oldini olish jinoyatchilik darajasining kamayishiga olib keladi. Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirgan davlatlarda jinoyatlar kamroq sodir etiladi. Bu o'z navbatida davlatning iqtisodiy o'sishiga va ijtimoiy barqarorlikka olib keladi. Misol uchun, 1990-yillarda Janubiy Koreya jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha qator innovatsion dasturlarni amalga oshirdi va natijada jinoyatlar sezilarli darajada kamaydi.

Ikkinchidan, jinoyatchilikni oldini olish, jamiyatdagi ijtimoiy tizimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatdagi adolatni ta'minlash, tenglik va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy bog'lanishni yaxshilash uchun ilg'or yondoshuvlar zarur. Bunday usullarni qo'llagan davlatlar fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga erishishgan. Masalan, Norvegiya va Shvetsiya kabi Skandinaviya davlatlarida jinoyatchilikni oldini olishda ta'lif, ijtimoiy yordam, tenglik va iqtisodiy imkoniyatlari ta'minlashga katta e'tibor berilgan .

Jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayoni asosan jinoyat sodir etilganidan so'ng amalga oshiriladigan choralarini o'z ichiga oladi. Bunga jinoyatchilarni jazolash, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini kuchaytirish, jinoyatlarini aniqlash va jinoyatchilarga tegishli jazolarni bajarish kabi faoliyatlar kiradi. Biroq, bunday choralar jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan vaqtinchalik va reaksiyon yondoshuvdir. Ularga qaratilgan harakatlar jinoyat sodir bo'lgandan keyin sodir etiladigan javob choralaridir va ko'pincha jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan uzoq muddatli yechimni taqdim etmaydi. Olimlarning fikriga ko'ra, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan yondoshuvlar bu jarayonning samarali bo'lishini ta'minlashi mumkin. Amerika kriminologi Cesare Beccaria (1764) jinoyatchilikni oldini olishning eng yaxshi usuli sifatida, hukm va jazolarni tayinlashda adolatli, noaniq va muvozanatli yondoshuvni ta'kidladi. Beccaria, asosan, huquqni muhofaza qilishning oldini olish va uning samaradorligini oshirishni ta'kidladi .

Jinoyatchilikni oldini olishning ilg'or xorij tajribasi o'z ichiga ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lif tizimlarini birlashtirishni oladi. Shvetsiya, masalan, o'zining jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha muvaffaqiyatli modeliga ega. Ushbu modelda asosiy e'tibor jamiyatda tenglikni, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilashga qaratilgan. Shvetsiya hukumati barcha fuqarolarni ta'lif olishga jalb qilishni, kasb-hunar ko'nikmalarini rivojlantirishni va ijtimoiy yordamni ko'proq taqdim etishni o'z ichiga olgan dasturlarni amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, Niderlandiyada jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan yondoshuvlar ko'p jihatdan boshqa davlatlardan farq qiladi. U yerda jinoyatchilikning oldini olish uchun psixologik yordam, ijtimoiy rehabilitatsiya va sog'liqni saqlash tizimi orqali jinoyatchilarga qo'llaniladigan rehabilitatsiya dasturlari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Niderlandiyaning bu boradagi tajribasi, jinoyatchilikni oldini olishda ilg'or yondoshuvlar sifatida e'tirof etilgan.

AQShda ham jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli dasturlar amalga oshirilgan. Masalan, "Community Policing" modeli, ya'ni jamoatchilik bilan hamkorlikda huquqni muhofaza qilish tizimi orqali jinoyatchilikning oldini olishga erishildi. Bu modelda, politsiya va jamiyat o'rtaсидagi hamkorlikni kuchaytirish orqali jinoyatlarni kamaytirishga erishilgan.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchilikni oldini olish nafaqat jinoyatlar sodir bo'lishining oldini olish, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va fuqarolar o'rtaсидida ishonchni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi. Dunyo miqyosidagi ilg'or tajribalar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikka qarshi kurashishdan ko'ra uni oldini olishning samarasi yanada yuqoriroqdir. Ta'lif, ijtimoiy adolat va tenglik, hamda axloqiy qadriyatlar yoshlar orasida shakllanishi lozim. Shu tarzda, jamiyatda jinoyatchilikni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi „O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to^risida^gi 27-sonli farmoni
2. OdilqoriyevX.T., Tulteevl.T. Jinoiy-huquqiy siyosatni liberallashtirish: zarurat va omillar //Хуцүц-Право-Law. - 2002. - № 1. - Б. 8;
3. Xo'jaqulov S.B. Ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyati. - Т.:2017. - Б. 5
4. Shodmonov Ubaydullohon To'raho'jayevich "JINOYATCHILIKNI OLDINI OLİSH: QARSHI KURASHISHDAN SAMARALIROQ YONDOSHUV" ISFT (International school of finance technology and science) instituti Fundamental iqtisodiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.14759595>
5. Voyaga yetmaganlar o'rtaсидida huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollar<https://iiv.uz/ru/news>